ZAHIRIDDIN
MUHAMMAD BOBUR
NOMIDAGI ANDIJON
DAVLAT UNIVERSITETI

ANDIJAN STATE
UNIVERSITY NAMED
AFTER ZAKHIRIDDIN
MUKHAMMAD BABUR

ILMIY XABARNOMA

Seriya: Pedagogik tadqiqotlar

SCIENTIFIC BULLETIN

Series: Pedagogical Research

2023 / 2 (70)

Andijon
2023-yil

ILMIY XABARNOMA
Seriya: Pedagogik tadqiqotlar

SCIENTIFIC BULLETIN
Series: Pedagogical Research

Muassis:
Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti

Jurnal bir yilda 8 marta (seriya 2 marta) chop etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 17-avgustda 1097 raqami bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi: 344

Nashr uchun mas’ul:
D.Ne’matova

Jurnal falsafa, tarix, filologiya, pedagogika va biologiya fanlari bo‘yicha Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar e’lon qilinishi lozim bo‘lgan nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Bosishga ruxsat etildi: 26.08.2023
Qog‘oz bichimi: 70x100
Ofset bosma usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 9,8
Nashr bosma tabog‘i 6,2
Adadi: 200 dona.
Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma №:190

“KANS OFFICE” MCHJ matbaa bo‘limida chop etildi.
Andijon shahri, Xarabek ko‘chasi, 104

Tahrir hay’ati raisi:

Azimova Ziyoda Ergashevna – pedagogika fanlari doktori (Andijon, O‘zbekiston)

Tahrir hay’ati

Quronov Muhammadjon – pedagogika fanlari doktori (Toshkent, O‘zbekiston)

Xodjayev Begzod Xudoyberdiyevich – pedagogika fanlari doktori, professor (Toshkent, O‘zbekiston)

Yusupova Shoxida Jaloliddinovna – pedagogika fanlari doktori, professor (Andijon, O‘zbekiston)

Xaydarov Mamatjon Eshqulovich – pedagogika fanlari doktori, professor (Toshkent,O‘zbekiston)

Jumayev Mamanazar Irgashevich – pedagogika fanlari doktori, professor (Toshkent, O‘zbekiston)

Isayev Ilya Fyodorovich – pedagogika fanlari doktori, professor (Belgorod, Rossiya)

Gülgün Bangir Alpan – pedagogika fanlari doktori, professor (Anqara, Turkiya)

Asuka Kavano – pedagogika fanlari doktori (PhD) (Nagoya, Yaponiya)

Aliyeva Shahlo – pedagogika fanlari doktori (Boku, Ozarbayjon)

Jumabayeva Aziya Eleupanovna – pedagogika fanlari doktori, professor (Ostana, Qozog‘iston)

Artikova Muhayyo Botiraliyevna – pedagogika fanlari doktori (Andijon, O‘zbekiston)

Bichurina Seimbika Usmonovna – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (Kazan, Rossiya)

Muharrir:

D.H. Quronov, filologiya fanlari doktori, professor

Tahririyat manzili:
170100, Andijon shahri, Universitet ko‘chasi, 129, Telefon: +998911602043. Faks: (374) 223-88-30
E-mail: adu_xabarnoma@mail.ru Rasmiy sayt: www.xabarnoma.adu.uz

MUNDARIJA

Pedagogika nazariyasi

U.J. HASANOV
Talabalarda axborot-texnologik kompetensiyani rivojlantirish muammosi.....5

M.A. SOBIROVA
O‘zbek xalqi etnomadaniyati va islom dini manbalarida tarbiya mavzusining yoritilishi...16

Sh.Sh. XUDAYBERGANOV
Global ta’lim va uning akademik erkinlik bilan bog‘liq jihatlari.....25

M.Sh. RAHMONOV
Mustaqil ta’lim olishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning didaktik asoslari (CourseLab dasturi misolida).....33

Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

Ф.Ш.АЛИМОВ, Р.А.ФАХРУТДИНОВА
Компетентностный подход в преподавании английского языка как концептуальная основа новой парадигмы образования.....41

P.M. JALOLOVA
Atom fizikasini o‘qitishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash metodikasi.....51

A.A. XUDAYBERDIYEV
Jadid matbuoti va darsliklarida *vatan* mavzusining yoritilishi.....59

KICHIK XABARLAR

Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

A. HAKIMOV
Biofizika fanini o‘qitish metodikasini kreativ yondashuv asosida takomillashtirish.....71

Pedagogika nazariyasi

A.V. UMAROV
Bo‘lajak muhandis-pedagoglarda mediamadaniyatni rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari.....77

CONTENTS

Theory of pedagogy

U.J. KHASANOV
The problem of developing students' information technological competence.....5

M.A. SABIROVA
Coverage of the topic of education in the ethnic culture of the Uzbek people and the sources of the islamic religion.....16

Sh.Sh. XUDAYBERGANOV
Global education and its aspects related to academic freedom.....25

M.Sh. RAHMONOV
Didactic principles of use of innovative technologies in independent education (Courselab example).....33

Theory and methods of education and upbringing

F.Sh. ALIMOV, R.A. FAKHRUTDINOVA
Component approach in teaching foreign languages as a conceptual basis of a new paradigm of education.....41

P.M. JALOLOVA
Methodology of application of digital technologies in teaching exact sciences.....51

A.A. KHUDAYBERDIYEV
The coverage of homeland topic in Uzbek jadids press and textbooks.....59

SHORT SUBMISSIONS

Theory and methods of education and upbringing

A. HAKIMOV
Improving the methodology of teaching biophysics on the basis of a creative approach...71

Theory of pedagogy

A.V. UMAROV
Theoretical and pedagogical foundations for the development of media culture in future engineering pedagogists.....77

UO‘K 398:20:371.035

O‘ZBEK XALQI ETNOMADANIYATI VA ISLOM DINI MANBALARIDA TARBIYA MAVZUSINING YORITILISHI

M.A. Sobirova

Maqolada barkamol avlod tarbiyasi har doim eng ustuvor masala bo‘lib kelganligi o‘zbek xalqi etnomadaniyati va islom dini manbalari misolida tahlil etilgan. O‘zbek xalq maqollarida yoshlarda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishga oid g‘oyalar o‘z ifodasini topganligi muayyan misollar bilan asoslangan. Shuningdek, ertangi kun vorislarini tom ma’nodagi bunyodkor avlod qilib tarbiyalash masalasi islom dini manbalarida ham muhim o‘rin tutganligi qayd etilgan.

Kalit so‘zlar: *tarbiya, barkamol avlod, barkamol avlod tarbiyasi, etnomadaniyat, xalq og‘zaki ijodi, o‘zbek xalqi etnomadaniyati, dostonlar, maqollar*.

В статье на примере этнокультуры узбекского народа и источников исламской религии проанализировано становление воспитания гармоничного поколения в качестве радиционно самого приоритетного вопроса. В частности, обосновано конкретными примерами, что в узбекских народных пословицах в полной мере выражены идеи о формировании высоких человеческих качеств у молодежи. Также отмечается, что вопрос воспитания подрастающего молодого поколения как компетентной личности также играет важную роль в источниках исламской религии.

Ключевые слова: *воспитание, гармоничное поколение, воспитание гармоничного поколения, этнокультура, устное народное творчество, этнокультура узбекского народа, эпосы, пословицы.*

Sir emaski, har bir xalq azaldan o‘z farzandlarini ma’nan yetuk, axloqan pok, oriyatli, nomusli, vijdonli, insonparvar, vatanparvar, bir so‘z bilan aytganda, kelajakka munosib voris qilib tarbiyalashni orzu qilib kelgan. O‘z o‘rnida bu shunchaki orzuligicha qolib ketmasdan, har bir xalq asrlar davomida o‘zi yaratgan og‘zaki va yozma ijod namunalari, jumladan, asotir, afsona, ertagu dostonlarida, qissayu hikoyalarida o‘z orzusidagi timsollarni shakllantirib, farzand tarbiyasida ulardan unumli foydalanib kelgan.

O‘zbek xalqi etnomadaniyatida ham yosh avlod tarbiyasi mavzusi yetakchi o‘rin tutganligiga manbalar guvohlik beradi. Ayniqsa, yosh avlod tarbiyasining o‘ziga xos omili bo‘lgan etnopedagogikada bolalarni go‘daklikdan boshlab mehnatsevarlikka, to‘g‘riso‘zlikka, o‘zini va o‘zgalarni qadrlashga, ona Vatanni asrash uchun daxldorlikni his etishga yo‘naltirib borish mavzusi yetakchi o‘rin tutgan. Bu bejizga emas. Chunki xalq o‘z farzandlarining ziyrak, irodali, insonparvar bo‘lib yetishishini orzu qilgan. Shu bois ham xalq og‘zaki badiiy ijodidagi aksariyat asarlarda tanqid ostiga olingan qahramonlar o‘z fe’lidagi kamchiliklarni tuzatadi va murod-maqsadiga yetadi. Bu misollar etnik madaniyatning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan xalq og‘zaki ijodining muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari – o‘lan, lapar, aytishuvlar xalqimizning necha ming yillik boy hayotiy tajribasi, ibrat saboqlari, samimiy ko‘ngil kechinmalari mahsuli, desak adashmaymiz. Bu ibrat durdonalarida donishmand xalqimizning beqiyos tafakkuri, bebaho qalbi, yorug‘ kelajakka, ertangi kunga ishonchi, yorqin orzu-istaklari mujassamlashgan. Birgina eng qadrli, eng suyumli o‘lan – ona allasini olaylik. Rivoyat qilishlaricha, is-

tilochi shoh qo‘shni mamlakatga hujum qilib, butun shahar va qishloqlarni vayron qilib, fuqarolarni qatl eta boshlaydi. Navbatdagi urushdan so‘ng qo‘lga kiritilgan mag‘lub shahar ko‘chalaridan qo‘shini bilan g‘olibona o‘tib borayotgan shoh shahar chetidagi bir kulba yonida to‘xtabdi. Uydan ona allasi eshitilayotgan edi. Sekin kulba derazasidan mo‘ralagan shoh mushtipar bir onaning go‘dakka emas, aksincha, jangdan og‘ir yaralanib qaytgan jangchi o‘g‘lini quchoqlab, unga alla aytayotganini ko‘ribdi. Shoh va sipohlar bir dam ilohiy qo‘shiq sehriga asir bo‘lishibdi… “Men beshigim tepasida aytilgan onam allasini unutolmayman”– debdi shoh va qo‘shinini olib yurtdan chiqib ketibdi. (Dala tadqiqotlaridan)

Gap bu bu qadimiy afsonada qanchalik haqiqat bor yoki yo‘qligi haqida emas. Asosiy masala umrboqiy va hayotbaxsh o‘lan – ona allasining ilohiy sehri, beqiyos kuchi asrlar sinovida sinalganligida. Mutaxassislarning fikricha, ona allasi chaqaloqning orom olishi uchungina aytilmasdan, uning qalbiga milliy ruh hamda ezgu fazilatlarni singdirishga ham xizmat qilar ekan.

Aksariyat manbalarda onalarga “mehr bulog‘i” deb ta’rif beriladi. Bu bejiz emas. Onaning ko‘krak suti va allasi omixta bo‘lib farzand qalbiga bashariyatga, yurtga, butun borliqqa nisbatan mehr-muhabbatni joylaydi.

Nafaqat alla, shuningdek, lapar, aytishuv, yor-yor kabi xalq qo‘shiqlari ham tinglovchiga jo‘shqinlik, zavq, ruhiy quvvat bag‘ishlaydi. Yurtimizda xalqimizning boy madaniy merosini asrab-avaylash, uni kelgusi avlodlarga yetkazish borasida amalga oshirilayotgan xayrli intilishlar uning ajralmas qismi bo‘lgan xalq og‘zaki ijodiga bo‘lgan e’tibor misolida ko‘rinadi.

O‘zbek xalqi etnomadaniyatining ajralmas uzviy tarkibiy qismi bo‘lgan xalqimiz etnopedagogikasining tarbiyaviy omil sifatidagi o‘rnini talqin etar ekanmiz, shu o‘rinda yana bir jihatga alohida e’tibor qaratishni maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Ma’lumki, pedagogika va psixologiyada ruhiyatga ta’sir etish orqali shaxsni tarbiyalash usuli yaxshi samara beradi. Xuddi shu usulni etnopedagogik manbalar sirasiga kiruvchi o‘zbek xalqining og‘izdan-og‘izga o‘tib kelayotgan ijod namunalarida ham ko‘rishimiz mumkin. Fikrimizni asoslash uchun xalqimizning eng sevimli dostoni – “Alpomish”ga murojaat qilamiz. Aka-ukalarning farzandsizligi motivi bilan boshlangan dostonda Boybo‘ri va Boysarining qirq kechayu qirq kunduz yaratganga nola qilib, Allohdan naslining davomchisini so‘rashda sabr bilan davom etganligi bois ularning biri o‘g‘il, ikkinchisi qiz farzand ko‘rishi juda ta’sirchan qilib tasvirlangan. “Astoydil, chin yurakdan so‘rasang, olloh beradi” deganlaridek, aynan shu voqea zamirida kitobxonning ruhiyatiga ta’sir etish orqali uni tarbiyalash g‘oyasi mujassam. Biroq voqealar rivojida Boybo‘ri bilan Boysari o‘rtasidagi o‘zaro ziddiyatlar bois butun ulus boshiga qanchadan qancha musibatlar yog‘iladi.

Shuningdek, doston davomida doston qahramoni sofdil Hakimbekning dushman makriga uchib, birgina noo‘rin qadam tufayli hushyorligini yo‘qotishi uning 7 yil zindonda yotishiga olib keladi. Bu o‘rinda ham kitobxonga ruhiy ta’sir ko‘rsatish, tashlanishi mumkin bo‘lgan noto‘g‘ri qadam yoki qilinishi mumkin bo‘lgan mudhish xatolardan ogoh etish holati mavjud.

Dostondagi bu tasvirlardan ko‘rinib turibdiki, dono xalqimiz ming yillar oldin, ya’ni, psixologiya fanining bugungi zamonaviy yutuqlaridan hali xabardor bo‘lmay turib yoshlarni tarbiyalashda eng ma’qul yo‘lni tanlagan ekan. Demak, azaldan ajdodlarimiz bu kabi og‘zaki ijod namunalari orqali o‘z orzu-umidlari, qalb kechinmalari, quvonch va iztiroblarini bayon etish bilan bir qatorda salbiy va ijobiy qahramonlarning xatti-harakatlari orqali farzandlari qalbiga insoniylik, kamtarlik, saxiylik, mardlik, ezgulikka intilish, halollikni qadrlash, yomonlik va haromdan hazar qilish kabi fazilatlarni singdirib borishga muvaffaq bo‘lganlar.

Birgina dostonlar emas, balki, ertak, masal, matal, maqol, topishmoq, tez aytish kabi folklor namunalarida, hatto loflarda ham yosh avlodni ziyraklikka, topqirlikka, to‘g‘riso‘zlikka, samimiylikka, halollikka da’vat etish motivlari mavjudki, bularning barchasi ulug‘ ajdodlari-

mizning tarbiya borasida o‘ziga xos bir maktab yaratganliklarini, ta’lim-tarbiya borasida doim mukammallikka intilganliklarining amaliy isbotidir. Ham etnologik, ham axloqiy, ham badiiy sohada muhim ahamiyat kasb etuvchi bu janrlarning har biri xususida ham xuddi shunday fikr bildirish mumkin.

Jumladan, topishmoqlar yosh avlodni teran mushohada yuritish va majoziy fikrlashga o‘rgatsa, tez aytishlarda nutq organlari shakllanishiga e’tibor qaratiladi. Bolalar qo‘shiqlarida esa estetik tarbiya bilan jismoniy tarbiya o‘rtasidagi muvofiqlik, uyg‘unlikni ko‘rish mumkin.

Og‘zaki ijod turlarida har bir xalqning, ijtimoiy guruhning dunyoga, tuzumga, o‘zgarishlarga o‘ziga xos munosabatlari aks etadi. Allalar, maqollar, qo‘shiqlar, ertak va afsonalar, o‘z vakillari qahramoni bo‘lgan dostonlarda xalqimiz etnomadaniyatining muhim jihatlari badiiy-falsafiy tasvirlarda o‘z aksini topgan. Bularning har biri juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega, chunki har bir mif va afsona xalqimiz orzu-armonlarini ifodalashi bilan bir qatorda biror bir tarbiyaviy g‘oyani ham ilgari suradi.

Masalan, “Shiroq”, “To‘maris”, “Rustami Doston” afsonalarida vatanparvarlik tuyg‘usi bilan bir qatorda chet ellik bosqinchilarga nisbatan nafrat ruhi ham yaqqol namoyon bo‘lib turadi. Yoki Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi davrdagi tarixi, turmushi, urf-odatlari, dinlari, ma’naviyati haqida juda qimmatli ma’lumotlar beruvchi eng qadimgi yozma manbalarimizdan biri – “Avesto”ni olaylik. Undagi miflarda ham ezgulikning jaholat, zulm va zo‘rlik ustidan g‘alabasi muqarrar ekanligi ta’kidlanadi.

Qadimgi davr folklori manbai bo‘lgan “Avesto”, “O‘g‘uznoma”, O‘rxun-Enasoy toshbitiklari, “Devonu lug‘otit-turk” kabi yodgorliklar ayni paytda xalqimizning yosh avlod tarbiyasi borasidagi o‘ziga xos yondashuvlarni ham o‘rganishga ko‘maklashuvchi zarur manbalar hisoblanadi. Bu manbalarning har birida ta’lim-tarbiya masalasiga o‘ziga xos yondashuv kuzatiladi. Masalan, “Avesto”da ezgulik bilan yovuzlik o‘rtasida azaliy kurash, oxir oqibat ezgulikning yovuzlik ustidan g‘alaba qozonishi turli hayotiy misollar, timsollar orqali tasvirlansa, turkiy xalqlarning qadimgi kitobiy eposlaridan biri “O‘g‘uznoma”da urug‘ boshi bo‘lgan O‘g‘uz obrazi orqali qarama-qarshi jihatlar talqin etiladi. O‘rxun-Enasoy toshbitiklarida esa qabr toshlariga bitilgan yozuvlarda hayot saboqlari mujassam bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin.

“Devonu lug‘otit-turk” esa misli ko‘rilmagan darajada keng qamrovli, qimmatli ma’lumotlarni o‘z ichiga qamrab olgan, hayotning har bir sohasidan saboq berishga qodir bo‘lgan eng nodir manbalardan biri hisoblanadi.

Bugun yoshlar borasidagi davlat siyosatining uzviy bir qismi bo‘lgan yosh avlodni milliy an’ana va qadriyatlar, umuminsoniy tamoyillar va mustaqillik g‘oyalari asosida tarbiyalashdek dolzarb vazifalarni bajarishda bu kabi manbalarning o‘rni va salmog‘ini hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘zining baxshichilik san’ati UNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi reprezentativ ro‘yxatiga kiritilgani munosabati bilan xalqimizga, xususan, baxshichilik san’ati namoyandalari va muxlislariga yo‘llagan tabrigida ta’kidlaganidek, “Baxshichilik san’ati yurtimizdagi turli millat va elatlar o‘rtasida o‘zaro hurmat, bir-birini tushunish va hamjihatlik muhitini yanada mustahkamlash yo‘lida beminnat xizmat qilib keldi va bugungi kunda ham bu sharafli vazifani to‘la ado etmoqda. Yoshlarni ona yurtga, milliy-madaniy qadriyatlarimizga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularni adolat va insoniylikka chorlash, barkamol avlod bo‘lib voyaga yetishida ezgulik elchilari bo‘lgan baxshi, oqin va jirovlarning o‘rni va ta’siri beqiyosdir” [1. B. 1].

Bugungi kitobxon o‘zbek xalqining og‘zaki ijod namunalari bilan tanishar ekan, azaldan yosh avlodni barkamol avlodga xos fazilatlar asosida tarbiyalab borish – xalqimizning azaliy maqsadi ekanligiga qayta va qayta guvoh bo‘laveradi.

Masalan, o‘zbek xalq maqollarida so‘zning yuksak darajada qadrlanishini kuzatish mumkin. Har bir maqolda so‘z shu qadar yuksak joziba kasb etadiki, undagi biror bir

so‘zning o‘zgartirilishi butun bir maqolning mazmun-mohiyatini o‘zgarib ketishiga sabab bo‘ladi. Xalqimizning “o‘z qadrini bilgan so‘z qadrini biladi” hikmati ham xuddi shu maqollarda namoyon bo‘ladi, desak mubolag‘a bo‘lmasa kerak. Aynan maqol janri dunyoning barcha xalqlari og‘zaki ijod namunalarida mavjud. Shuningdek, ham aytilishi, ham ma’nosi va ko‘lami, ham shakli, ham hajmi jihatidan dunyo xalqlarining barchasida birdek ahamiyat kasb etadigan muhim bir janr hisoblanadi. Arab xalqida maqollar “qavlun” deb nomlansa, tojiklar uni “zarbulmasal” atamasi bilan ifodalaydilar. Ruslarda esa bu janrni “poslovitsa” deyishadi. Bularning barchasi umumlashtirilsa *hikmatli so‘z, maslahat, pandu nasihat* kabi ma’nolar oydinlashadi. Adabiyotshunos olima M.Maqsudovaning yozishicha, “Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida ham “sav” atamasi otalar so‘zini eslash tarzida keltirilgan” [2. B. 39–42].

O‘ziga xos tarbiya maktabi bo‘lgan maqollarda yoshlarda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishga oid g‘oyalar to‘la-to‘kis o‘z ifodasini topgan. Soha olimlarining qayd etishlaricha, “maqollarni “Hayot qomusi”, og‘zaki ensiklopediya, o‘ziga xos bir badiiy-tarixiy solnoma deyish mumkin. Ular kishilarning aqlini o‘tkirlashtiradi, nutqini ravshan va ta’sirchan qiladi, hayotda to‘g‘ri yo‘lni tanlay bilishga, hayotiy jumboqlar va muammolarni to‘g‘ri yechishga o‘rgatadi, turmushning jamiki katta-kichik masalalari xususida qimmatli maslahatlar beradi” [3. B. 8].

Jumladan mana bu kabi maqollarga e’tibor qarataylik:

“Bola aziz,
Odobi undan aziz”.

“Va’daga vafo – mardning ishi,
Va’dasiz – subutsiz kishi”.

“Yomonni qilg‘il yaxshi,
Yaxshi – shundoq ham yaxshi” [3. B. 56, 78, 123, 126].

Bu maqollar nafaqat yoshlarga, balki kattalarga ham odob-axloqdan, to‘g‘riso‘zlikdan saboq beradi. Yuqorida qayd etilganidek, bunday saboqni xalqimiz og‘zaki ijodidagi har bir janrdan olish mumkin.

Ajdodlarimizning o‘z ijod namunalarida barkamol avlod tarbiyasiga alohida ahamiyat qaratganliklari bejiz emas. Zero, yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalash jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan obyektiv zaruratdir. Bundan ko‘rinib turibdiki, demak, ajdodlarimiz jamiyat ehtiyojlarini nazardan chetda tutmaganlar.

O‘zbek xalqi etnomadaniyatida o‘z ifodasini topgan axloqiy mezon va normalardan ulug‘ ajdodlarimiz o‘z asarlarida unumli foydalanganliklarini ularning bizga qoldirgan boy ma’naviy-ma’rifiy merosidan ham ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, buyuk mutafakkir va davlat arbobi Yusuf Xos Hojibning aynan barkamol inson tarbiyasiga bag‘ishlangan axloqiy asari – “Qutadg‘u bilig” [4]ni olaylik. Mazkur dostonda ezgulik va yovuzlik, to‘g‘rilik va egrilik, rostgo‘ylik va yolg‘onchilik, nur va zulmat, samimiylik va riyokorlik, kamtarinlik va manmanlik, ma’rifatlilik va bilimsizlik, saxiylik va baxillik bir-biri bilan qiyoslanadi, qiyosiy tahlillar badiiy obrazlar vositasida kitobxonga yetkaziladi. Eng muhimi kitobxonga oqilona xulosa chiqarim imkoni beriladi.

Necha asrki, ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llanilayotgan, shu bilan bir qatorda etnomadaniy an’analarni o‘zida mujassamlantirgan pandnomalardan yana biri Unsurul-Maoniy Kaykovus qalamiga mansub bo‘lgan “Qobusnoma” hisoblanadi.

O‘tmishda darslik vazifasini o‘tagan “Qobusnoma”da ta’lim-tarbiyani juda erta boshlash zarurati, shu bilan bir qatorda kasb-hunar egasi bo‘lishning afzalligiyu ilmsizlik, hunarsizlikning xunuk oqibatlari yoritib berilgan. Kaykovus o‘z farzandining barkamol, har tomonlama bilimdon, zakovatli va yuksak axloqli bo‘lishini ta’minlash uchun inson tarbiyasiga zarur bo‘lgan hamma tomonlarini asoslab beradi.

Shuningdek, “Qobusnoma”da inson hayotida ilmli bo‘lish bilan bir qatorda kasb-hunar egallash, ushbu kasb-hunarga yoshlikdanoq mehr qo‘yishning ahamiyati benihoya kattaligi hayotiy misollar va hikoyatlar vosita-

sida atroflicha yoritilgan. Jumladan, alloma kasb-hunarga oid bilimlarning zarurati yuzasidan shunday fikrlarni keltiradi: “Ey farzand, ogoh bo‘lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo‘lur va hech kishiga naf’ yetkurmas. Bilursanki, xori mug‘ilon (tikanli buta)ning tani bordur, ammo soyasi yo‘qdur. Hunarsiz kishi ham xori mug‘ilon yanglig‘ na o‘ziga va na o‘zgaga foyda berur.

Agar kishi har qanchaki oliy nasab va asl bo‘lsa, ammo hunari bo‘lmasa, xaloyiqning izzat va hurmatidan noumid bo‘lur...” [5. B. 37]. Ya’ni, kasbi yoki hunari yo‘q inson xuddi mevasi tugul hatto soyasi ham yo‘q tikanli buta kabi bu hayotda umidi maqsadi yo‘q, biror insonga foydasi tegmaydigan kishiga aylanadi.

Shu o‘rinda yana “Qobusnoma”ga murojaat qilamiz: “...Hunarmand kishi uldirkim, fazli va hunar sababi bila qadr va martabasi o‘zgalardan baland bo‘lg‘on ekanini bilib, fazl va hunarga avvalgidin ziyodroq harakat qilg‘ay va burung‘idin ziyodroq fozil va hunarmand bo‘lg‘ay. Har kishiki, bundoq qilsa tez xalqning orasida aziz va ulug‘ bo‘lg‘ay...”. Demak, inson o‘zi tanlagan kasbining mohir egasi bo‘lishi, o‘z kasbi hunari bilan el-yurt orasida hurmat-e’tibor qozonishi uchun doimo izlanishi, harakat qilishi, o‘zi tanlagan kasbning sir-asrorlarini o‘rganishga mudom intilib borishi lozim etnopsixologik xususiyatlari va hokazolarni qamrab oladi [5. B. 38].

Ushbu manba barkamol insonni tarbiyalash jarayonida munosib qo‘llanma bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz.

Shu o‘rinda “Barkamol inson qanday bo‘lishi zarur?” degan savolga mashhur faylasuf va shoir Aziziddin Nasafiyning yondashuviga tayanib turib javob berib o‘tish o‘rinli bo‘lsa kerak: “Bilgilki, kamol inson deb shariat, tariqat va haqiqatni to‘liq egallagan odamni aytadilar. Agar bu iborani tushunmasang, boshqacha so‘z bilan aytay: bilgilki, komil inson shunday insondirkim, unda to‘rt sifat kamolga yetgan bo‘lsin: ezgu so‘z, ezgu amal (fe’l), ezgu axloq va ma’rifat” [6. B. 7].

Allomaning bu yondashuvidan kelib chiqib xulosa qilsak, barkamol shaxs yoki komil inson qandaydir reallikdan tashqaridagi xayoliy ideal obraz emas, aksincha, aslida hayotda mavjud bo‘lgan, o‘zini ustida tinmay ishlaydigan, o‘z bilimini oshirib boradigan, o‘zidagi nuqsonlarni bartaraf etib borib, ezgu xislatlarni mujassamlashtira borgan axloqli, ma’rifatli shaxsdir.

O‘zbek milliy ma’naviyatining shubhasiz buyuk dahosi bo‘lgan ulug‘ ajdodimiz – Mir Alisher Navoiy o‘zining “Mahbub ul-qulub” asarida yuksak ma’naviy axloqning yaxlit konsepsiyasini bayon qilgan. Ulug‘ mutafakkir kibru havo, manmanlik, xudbinlikni keskin rad etadi, xushtavoze’lik, yuksak did, ma’rifatga, ilmga oshuftalik, vatanparvarlikni ulug‘laydi.

Etnomadaniyatning barcha unsurlarini, etnik jarayonlarni va natijalarini tizimli ravishda tahlil qilgan holda aytish mumkinki, etnos bir vaqtning o‘zida ham etnomadaniyatning obyekti, mavzusi va tashuvchisi, ham ular bilan o‘zaro munosabatlar tizimi hisoblanadi. U muayyan xalqning:

– o‘tmishi, tarixi va madaniyati;

– an’ana va qadriyatlari;

– asrlardan-asrlarga o‘tib kelayotgan ham moddiy, ham ma’naviy merosi;

– urf-odatlari;

– qadriyatlari;

– etnik tarkibda amal qilinadigan me’yorlar;

– etnosga xos ko‘nikmalar;

– etnik mezonlar;

– xalqning tabiiy, ijtimoiy omillar ta’sirida shakllangan etnopsixologik xususiyatlari va hokazolarni qamrab oladi.

Tizim tarkibiga kirgan yuqoridagi omillarning har biri muayyan xalq etnomadaniyatining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Ularning qaysidir biri yoddan ko‘tarilsa yoki unutilsa, xalq etnomadaniyatida kemtiklik yuzaga keladi.

Aytish mumkinki, o‘zbek xalqining etnomadaniy rivojlanish jarayoni o‘tmish sahifalarida qolib ketmay bugungacha davom etib keldi. Ayniqsa, O‘zbekiston mustaqillikka erishgan sanadan boshlab yangicha mazmun kasb etdi. O‘z o‘rnida an’anaviy etnik madaniyat elementlari istiqlol g‘oyalari shakllanishi-

ga katta ta’sir ko‘rsatib, tarixiy tomirlaridan kuch olgan o‘zbek milliy madaniyati, tafakkuri, urf-odatlari, turmush tarzi – bir so‘z bilan aytganda, etnomadaniyati o‘ziga xos uyg‘onish va yangilanish pallasiga qadam qo‘ydi. Zotan, o‘zbeklarning moddiy va ma’naviy madaniyati o‘ziga xos va boydir. Uning eng yaxshi tomonlari an’anaga aylanib, hozirgacha saqlanib kelmoqda. Endilikda asrlar mobaynida shakllangan, ajdodlardan-avlodlarga bebaho meros sifatida sayqallanib kelayotgan an’analarimizning jamiyatni birlashtiruvchi xususiyatlaridan yanada to‘laroq foydalanish lozimligini mustaqillik davri taqozo qilmoqda.

O‘z o‘rnida o‘sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi masalasi Islom dini manbalarida ham muhim o‘rin tutadi. Islom ta’limotlariga ko‘ra farzandlar Alloh ne’matlaridan biri bo‘lishi bilan birga, har bir ota-ona huzurida mas’uliyat yuklaydigan omonat hamdirlar. Bu omonat farzandlarga go‘zal tarbiya berish, ham ma’nan, ham jisman sog‘lom qilib o‘stirish, ularni jamiyat, el-yurt rivojiga munosib hissa qo‘shadigan shaxslar etib tarbiyalash kabi ko‘plab ishlar orqali ado qilinadi. Ayniqsa, islom ta’limotida farzand tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilib, kelgusida sulolaning bardavomligi, ravnaq topishi yoki, aksincha, zalolati oxir-oqibat oilalarda kamol topayotgan o‘g‘il-qizlarning sog‘lom tarbiyasiga bog‘liq ekanligi alohida e’tirof etiladi. Bu borada asosiy mas’uliyat ota-ona zimmasida bo‘lishi, ta’kidlanadi.

Ayni shu o‘rinda Qur’oni karimdagi quyidagi oyatni dalil sifatida keltirish mumkin: “Ey imon keltirganlar, nafsingizni va bola-chaqangizni jahannam otashidan saqlangiz” [7. B. 67].

Shuningdek, hadisi shariflarda har biringiz qo‘l ostingizga mas’uldirsizlar deyilishi bilan birga, bolani go‘zal tarbiyalamoq va go‘zal ism bermoq uning otasi ustidagi haqlaridan ekanligi aytilgan. “Bolalaringizga qo‘sha-qo‘sha ehson qiling, o‘ylaganingizdan ikki barobar ko‘proq siylang” [8. B. 241] – deyiladi Hadisi shariflarda.

Hadisi shariflardan birida keltirilgan rivoyatga ko‘ra ([8. B. 242]. “Abdulloh ibn Muborak huzuriga bir odam kelib, bolasini itoatsizligidan shikoyat qildi. Ibn Muborak undan so‘radi:

– Uni badduo qilibmiding?

– Ha! – dedi u odam.

Ibn Muborak:

– Uni sen yo‘ldan chiqaribsan! Bolaga mehr bilan, yumshoq muomala qilish kerak. Unutmaslik kerakki, mehru vafo, yaxshilik urug‘ini ekkan kishi yaxshilik mevasiga ega bo‘ladi. Farzandga bepisand, faqat men haqman deb, zulm o‘tkazgan ota-ona musulmonchilik qilolmagan bo‘ladi. Qahrli ota-ona qahrga duch kelsa, o‘kinmasin! [8. B. 243].

Yoki boshqa bir Hadisda rivoyat qilinishicha, sahobalardan biri Aqro‘ ibn Habis payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning nabirasi hazrati Hasanni o‘payotganini ko‘rib, dediki:

– Mening o‘n bolam bor. Hech birini o‘pgan emasman.

Rasulullоh buyurdilar:

– Marhamat qilmagan – marhamat ko‘rmaydi [8. B. 241–249].

Yana bir Hadisda Abdulloh ibn Shaddoddan shunday rivoyat keltiriladi:

Bir kuni Rasulullоh jamoat bilan namoz o‘qiyotgan edilar Husayn (r.a) keldi. Rasulullоh sajda qilib turganda bo‘yniga mindi. Rasulullоh sajdani uzaytirdi. Uning orqasidan namoz o‘qiyotganlar, bir narsa bo‘ldi, deb o‘yladilar. Namoz bitganda “ey Allohning Rasuli, sajdani cho‘zdingiz. Biz bir balo bo‘ldiyov, deb o‘yladik!” – dedilar. Rasulullоh shu javobni berdilar:

– Nabiram (Husayn) meni minib oldi. Uning zavqi buzulmasin deb, sajdadan turishga shoshmadim.

Rasulullohning bu harakatida ba’zi ibratli jihatlari bor:

1. Allohga yaqinlik (chunki kishining Allohga eng yaqin bo‘lgan payti sajdada bo‘lgan chog‘idir).

2. Bolaga shafqat va yaxshilik.

3. Ummatiga shafqat va marhamatni o‘rgatish.

Rasulullоh yana shunday buyurdi: “Bolaning hidi, jannat hididandir” [8. B. 241–249].

Keltirilgan iqtiboslardan ham ko‘rinib turibdiki, ota-ona va farzandlarni e’zozlash islom dinida ham eng oliy mukofotga sazovar bo‘luvchi amal hisoblanadi. Ya’ni, islom dini aqidalariga ko‘ra o‘z yaqinlariga mehr ko‘rsata olmagan inson hech qachon mehr ko‘rmaydi. Ota-onadagi eng buyuk mas’uliyat ham bolani har tomonlama sog‘lom, ma’nan yetuk qilib tarbiyalamoqdir.

Farzand tarbiyasi ana shunday o‘ziga xos murakkab va serqirra jarayon. Yurtga, ona-vatanga muhabbat, insonparvarlik tuyg‘ulari xalqimizning qon-qoniga singib ketgan azaliy xususiyatlarki, ayni paytda bu kabi azaliy xususiyat va fazilatlarni asrab-avaylash va yanada takomillashtirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni kelajakka munosib o‘g‘il-qizlar qilib tarbiyalash masalasi bugungi kunda ham Yangi O‘zbekiston oldidagi eng dolzarb muammodir. Zero, o‘sib kelayotgan yosh avlod bugun jamiyatimizning shunchaki bir a’zosi bo‘lsa, ertaga uning bunyodkori. Qayd etilganidek, ertamizning yorug‘ yoki aksincha bo‘lishi shubhasiz aynan shu yoshlarga bog‘liq.

Yana shuni alohida qayd etib o‘tish zarurki, o‘sib kelayotgan yosh avlodni odob-axloq tamoyillari va zamon talablari asosida tarbiyalash uchun o‘qituvchi, ustoz-murabbiyning o‘zi ham shu talablarga muvofiq mutaxassis bo‘lishi lozim. O‘zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov qayd etganidek, “zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o‘zi ana shunday bilimga ega bo‘lishi kerak” [9. B. 7].

Zero, qaysi va qanday davr bo‘lmasin, yoshlar tarbiyasi masalasi har doim dolzarb masala bo‘lib kelgan. Lekin “globallashuv asri” va “axborot asri” deb nom olgan bugungi asrimizda bu masala har qachongidan ham yanada dolzarblashayotgani ayni haqiqat. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan bot-bot ta’kidlanayotganidek, “... biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda” [10. B. 1]. O‘z o‘rnida “dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna solayotgan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga etishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir” [10. B. 1].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, yoshlar tarbiyasi eng dolzarb va kechiktirib bo‘lmas o‘ta muhim vazifa ekanligini bugun har bir pedagog to‘g‘ri anglagan holda yosh avlodning ma’naviy tarbiyasiga o‘ziga xos tarzda yondashishi lozim. Bu zamon talabigina emas, balki ta’lim-tarbiyadan ko‘zlanadigan oliyjanob maqsad hamdir**.**

Adabiyotlar:

1. *Мирзиёев Ш.М*. Бахшичилик санъати намояндалари ва мухлисларига // “Халқ сўзи”, 2021 йил 17 декабрь.

2. *Мақсудова М*. Маҳмуд Кошғарийнинг “Девону луғатит-турк” асарида мақоллар // Шарқ машъали, 2014. – № 1(45).

3. *Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш.* Ҳикматнома: Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон Совет энциклопедияси Бош редакцияси, 1990. – 325 б.

4. *Юсуф Хос Хожиб.* Қутадғу билиг / Нашрга тайёрловчи: К.Каримов. – Тошкент: Фан, 1971. – 954 б.

5. *Кайковус.* Қобуснома /Нашрга тайёрловчилар: С.Долимов, У.Долимов. – Тошкент: Ўқитувчи, 2011. – 208 б.

6. *Насафий А*. Комил инсон китоби. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2021. – 232 б.

7. Қуръони Карим. / Таржима ва изоҳлар муаллифи: Шайх Абдулазиз Мансур. – Тошкент: Шарқ, 2012. – 621 б.

8. *Ғаззолий А.Х*. Мукошафат ул-қулуб. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2004. – 412 б.

9. *Каримов И.А.* Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 181 б.

10. *Мирзиёев Ш.М.* Тинчлик, маърифат ва бунёдкорлик йўлида ҳамкорлик // Халқ сўзи, 2016 йил 19 октябрь.

COVERAGE OF THE TOPIC OF EDUCATION IN THE ETHNIC CULTURE OF THE UZBEK PEOPLE AND THE SOURCES OF THE ISLAMIC RELIGION

M.A. Sabirova[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Pedagogical Research. 2023. 2(70). 16-24.

Tashkent State Pedagogical University, Tashkent, 100070, str. Bunyodkor, 27 (Uzbekistan). E-mail: new.tdpu@uz

Keywords: upbringing, harmonious generation, upbringing of a harmonious generation, ethnoculture, people, oral folk art, ethnoculture of the Uzbek people, epics, proverbs, sources of the Islamic religion, the Koran, Hadith, responsibility, parental responsibility.

The article analyzes by the example of the ethnic culture of the Uzbek people and the sources of the Islamic religion that the upbringing of a harmonious generation has always been the highest priority issue.In particular, it is proved with concrete examples that, in Uzbek folk proverbs, ideas about the formation of high human qualities among young people are fully expressed. It is also noted that the issue of educating the younger generation as a competent person also plays an important role in the development of the Islamic religion. The author expressed his views using the verses of the Quran and narratives of hadith.

As noted in the article, sources indicate that the topic of education of the younger generation occupies a leading place in the ethno-culture of the Uzbek people. Special attention in ethnopedagogy, which is a specific factor in the upbringing of the younger generation, is paid to the issue of educating the younger generation in the spirit of patriotism, nationality, diligence, truthfulness. It's not for nothing.

Because the people dreamed that their children would become discerning, strong-willed, humane. Therefore, the heroes, criticized in most works in folk oral artistic creativity, correct the shortcomings of their verbs and reach their goal.

These examples confirm the important educational significance of folk oral creativity, which is one of the most important components of ethnic culture.

These masterpieces embody the unsurpassed thinking of our wise people, priceless heart, faith in the light, in the future, bright dreams.

Today it is known that it is impossible to achieve an effect in the upbringing of a person without affecting her mental state. The education of the generation in oral folk art is carried out using this method. In particular, in the epic "Alpomish", the enemy, taking advantage of the simplicity and plausibility of Alpomish, lures him and his comrades into a trap. The hero's loss of vigilance, having once drunk wine, forces him to spend 7 years in prison. Or in the epic, because of the intolerance of the boyar brothers and boyars, unprecedented spectacles fall on the heads of tens of thousands of bells.

The issue of raising children by harmonious people also plays an important role in the sources of Islam. According to Islamic teaching, children are one of the blessings of Allah, and every parent is responsible for which. This contribution is made by many works, such as providing excellent education to children, raising them both spiritually and physically healthy, educating them as individuals who make a worthy contribution to the development of society and the country.

References:

1. Mirziyoyev, Sh.M. (2021) Baxshichilik san'ati namoyandalari va muxlislariga [Representatives and fans of the art of Bakhshi]. Xalq so'zi. December 17.

2. Maqsudova, M. (2014) M.Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asarida maqollar [Proverbs in the work of Mahmud Gashgari "Devonu dictionary-Turkish]. Sharq mash'ali. No (45).

3. Shomaqsudov, Sh., Shorahmedov, Sh. (1990) *Hikmatnoma*: O'zbek maqollarining izohli lug'ati [Proverb: explanatory dictionary of Uzbek proverbs]. Tashkent: O'zbekiston Sovet ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi.

4. Yusuf Xos Hojib.(1971) Qutadg'u bilig [Qutadg'u bilig]. Tashkent: Fan.

5. Kaykovus. (2011) *Qobusnoma* [Qabusnamə]. Tashkent: O'qituvchi.

6. Nasafi, A. (2021) *Komil inson kitobi* [The Perfect Man book]. Tashkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

7. (2012) Qur'oni Karim [The Holy Quran]. Tashkent: Sharq.

8. G'azzoliy, A.X. (2007) *Mukoshafat ul-qulub* [Mukoshafat ul-qulub]. Tashkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.

9. Karimov I.A. (1997) *Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori* [Harmonious generation is the basis of Uzbekistan's development]. Tashkent: Uzbekistan.

10. Mirziyoyev, Sh.M.(2016) Tinchlik, ma'rifat va bunyodkorlik yo'lida hamkorlik [Cooperation in the name of peace, enlightenment and creativity]. *Xalq so'zi.* October 19.

Muallif haqida ma'lumot:

SOBIROVA Marhabo Abdug'aniyevna – falsafa fanlari nomzodi. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" kafedrasi dotsenti. E-mail: sobirova1971@mail.ru